

**VOYAGA YETMAGANLAR BILAN ISHLASHDA OILADAGI
SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA UNING BOLA SHAXSI
SHAKLLANISHIGA TA'SIRI**

Komiljonov Shoxruxmirzo Qodirjon o'g'li

*Toshkent shahar Jamoat Xavfsizligi xizmati
universiteti mustaqil izlanuvchisi magistri*

Voyaga yyetmaganlar deb, Konstitutsiya va boshqa qonunlarda ko'rsatilgan fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bajarish uchun belgilangan yoshga to'lmagan shaxslar nazarda tutiladi. Bu toifadagi jinoyat ishlarini yuritish qonunning alohida bobida ko'rsatilgan, chunki ularga nisbatan o'zga me'yorlar qo'llaniladi. Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda ularning ijtimoiy- ruhiy holatlarini hisobga olish e'tiborga molikdir. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarda bir tomondan etuklik alomatlari, ya'ni ularda mustaqillikning shakllanishi, o'zini tuta bilish va idora qilish namo yon bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy ulg'ayishning davom eta yotganligi (maktab yoki boshqa bilim dargohida o'qishni davom ettirishi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi, muomala layoqatini rivoji) ko'rindi. Voyaga yetmaganlarda keskin fikrlash, tez jahl chiqishi, o'zini tuta olmaslik, vaziyatni to'la baholay olmaslik sifatlari mavjud bo'ladi. Bu yoshdagilarning o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda qonunchilikda chekinishlar qilishga va qo'shimchalar kiritishga to'g'ri keladi. Hali xarakteri shakllanib ulgurmagan yoshlarga nisbatan "xavfli yoshda" degan ibora qo'llanilishi bejiz emas. Voyaga yetmaganlarni jinoyatlari xaqidagi ishlarni yuritishning xususiyati deganda, gap jinoyat sodir etish vaqtida 18 yoshga to'lmagan shaxs to'g'risida boradi. Voyaga yetmaganlarni jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlardan asosiysi voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlarni aniqlashdan iboratdir. Voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar uning ijtimoiy ruhiy holatidan kelib chiqadi. Bu uning xa yotiy tajribasizligi biron

odamga o‘xshashga intilishi, o‘ta ta’sirchanligi, tengdoshlari orasida o‘zini ustun qo‘yishga intilishi o‘ziga nisbatan hurmat e’tiborni qozonishni xoxlashi, kayfiyatining keskin o‘zgarib turishi, o‘ylamasdan harakatlar qilishi, voqealarni o‘z dun yo qarashi jihatidan qabul qilishi va huquqiy jihatdan cheklangan layoqat maqomi bilan ta’riflash mumkin. Voyaga yetmaganlar orasida huquqbazarlik sodir etilishining ijtimoiy holatlaridan yana biri voyaga yetmaganning turmush va tarbiya olgan sharoitlarini aniqlashdir. Bunda voyaga yetmaganning ota onasi yoki ularning qonuniy vakillari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar: ularning ma’lumoti, mutaxassisligi, tashkilotchiligi, ma’naviy xususiyatlari, bir-biriga va farzandlariga bo‘lgan munosabatlari, bolaning ota-onasiga bo‘lgan munosabati, hurmati, uni tarbiyalashdagi ishtiroki, voyaga yetmaganning moddiy ahvoli, oilaning moddiy ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlar, voyaga yetmagan shaxsning ma’lumoti xaqidagi axborotlar, qaerda o‘qishi, qobiliyati, baholari, o‘qishga munosabati, kattalarga, oilasiga, tengdoshlariga bo‘lgan munosabatlari hisobga olinadi. Aniqlanishi lozim bo‘lgan sharoitlardan yana biri voyaga yetmaganning aloqalari, bo‘sh vaqtini o‘tkazish muhiti, uning qiziqish doiralari, mahallada va uyda o‘zini tutishi, qanday uyushmalarga a’zoligi aniqlanadi. Voyaga yetmaganni jinoiy qilmish sodir qilishdan avval qanday xuquqbazarliklar sodir etgani, unga nisbatan qanday choralar qo‘llanilgani va bu choralar qanday natijalarga olib kelgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rganilishi lozim. Bundan tashqari agar voyaga yetmagan shaxs hech qayerda o‘qimasa yoki hech qaerda ishlamasa, buning sabablarini ham o‘rganish kerak.

Voyaga yetmaganlarda jamiyatga qarshi bo‘lgan dun yoqarash va ko‘nikmalar qanday sharoitlarga asosan, ya’ni noto‘g‘ri tarbiya, ba’zi shaxslarning ta’siri, salbiy namuna oqibatlari aniqlanadi. Jinoyatni sodir etishda aynan voyaga yetmaganlar yoshiga mansub bo‘lgan sabablar borligi (mayda narsalarni o‘g‘irlash, o‘zini ko‘rsatish uchun mashina yoki mototsiklni olib qochish) ham aniqlanadi. Voyaga yetmaganlarning barcha turdagи ishlarini ko‘rishda ichki ishlar bo‘limlari tomonidan dastlabki tergov o‘tkazilishi shart. Voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha surishtiruvchi jinoyat ishini qo‘zg‘atib, uni tergov organlariga dastlabki tergovni amalga oshirish uchun yuboradi.

Voyaga yetmaganlarni so‘roq qilishda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 553-moddasiga binoan himoyachi, tergovchining ruxsati bilan uning qonuniy vakili, pedagog yoki psixolog ham ishtirok etishi mumkin. Tergovchi voyaga yetmaganning shaxsini, qaysi tilda ko‘rsatma bera olishini aniqlashi, protsessual xuquq va majburiyatlarini tushuntirib, unga qanday jinoyat sodir etishda gumon qilina yotganligini e’lon qiladi. Gumon qilinuvchiga ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilinganligi to‘g‘risidagi qarorni taqdim qiladi va unga qo‘yila yotgan ayblovning moxiyatini tushuntirib beradi. Bundan tashqari birinchi marta so‘roq qilishdan oldin tergovchi voyaga yetmaganning o‘zini aybli deb hisoblash yoki hisoblamasligi, o‘z aybini to‘la yoki qisman rad etishi yoki etmasligini aniqlashi shart.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini umumiyligi so‘roq qilish vaqtি olti soatdan oshmasligi kerak (dam olish, ovqatlanish vaqtি bunga kirmaydi). Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishida katta yoshdagи dalolatchilarning yoki boshqa ishtirokchilarning bor yo‘qligi, u shaxslar tomonidan voyaga yetmaganga turli jismoniy yoki ruhiy ta’sir ko‘rsatilgani, shu sababdan voyaga yetmagan shaxs jinoyatda ishtirok etgani holatlari aniqlanishi lozim.

Oila bu – axloqiy ma’suliyat, o‘zaro yordam, maishiy xizmat umumiyligi bilan bog‘langan, nikohga yoki yaqin qarindoshlikka asoslangan kichik guruhdir.

Ma’lumki, ta’lim tarbiyada oilaning ahamiyati va ta’siri g‘oyatda muhim. Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash eng dolzarb masala sifatida qaraladi. Bu borada ko‘p gapirilib, yozilib, maxsus tadbirlar tashkil qilinsa ham, nizoli oilalar, ajralishlar mikdori ortib borayotganligi o‘z navbatida bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Hozirgi globallashuv davri yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oilaning psixologik asoslarini o‘qitish, o‘rgatish va uqtirish zarurligini taqazo kilmoqda. Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o‘zları ham ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlari ayniqsa, shaxsiy munosabatlar orasida eng samimiy eng yaqin bo‘lgan oilaviy munosabatlari ham takomillashib, o‘ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Ishlab chiqarish munosabatlari

jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o‘zlarida ruy berayotgan ijtimoiy psixologik, fizologik va boshqa o‘zgarishlar odamlarning o‘zaro muloqot munosabatlari doirasini ma’lum darajada chegaralanib qolishiga olib kelmoqda. Ularda ajdodlarimizga xos bo‘lgan o‘zaro munosabatlardagi sabr-qanoatlilik, shukronalilik, bag‘rikenglik kabi milliy xususiyatlarning ma’lum darajada kamayib ketayotganligiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar xissiy emotsiyal zo‘riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lmoqda. Bularning ta’siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o‘z ifodasini topadi. Yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari 20-21 yoshdan, 23-25 yoshgacha bo‘lgan davrga to’g‘ri keladi. Bundan tashqari, odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan birga oilalarning kundalik hayoti o‘zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib boradi. Jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o‘ziga xos yangi ijtimoiy funksiyalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasini eng dolzarb masalalardan biri sifatida yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi. Shaxsiy farovonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi omil, baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir, baxtga intilish ularni oila qurishga undaydi. Inson o‘ziga ato etilgan baxtning turtdan uch qismini oiladan, qolganini esa boshqa narsalardan topadi. Oilada er - xotinning bir-birlarini to‘liq tushunishi – ularning o‘zini baxtli his kilishlarini ta’minlaydi. O‘zbek xalqi xarakterida andishalilik, xushmuomalalilik, shirin suxanlik, mehmondo‘stlik, qo‘li ochiqlik va saxiylik sifatlari mavjud. Shu bilan birga, to‘lgach zo‘ravonlarga nisbatan ayovsiz bo‘lish, yurgan yo‘lida ortga qaytmaslik, isyonkorlik, bir so‘zlilik odati xam xalqimiz uchun xosdir. Milliy xarakter muayyan millat fazilatlarining o‘ziga xos xususiyatlarining majmuasidan iborat bo‘ladi. Milliy xarakter o‘z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, prinsipiallilik, o‘z o‘zini tuta bilish, qat’ilik, matonat kabilarni) va axloqiy xislatlarni (poklik, intizomlilik, samimiylilik, xaqqoniylilik, insonparvarlik va boshqalar) qamrab oladi. Milliy xarakter odamlarga bo‘lgan munosabatlarni (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik) mehnatga bo‘lgan

munosabatlarni (mehnatsevarlik yoki yalqovlik, mas'uliyatlilik yoki mas'uliyatsizlik) narsalarga bo'lgan munosabatlarni (ozodalik, tejamkorlik- isrofgarchilik, ayash yoki ayamaslik) va odamlarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarni (izzat-nafslilik, shuxratparaslik, mag'rurlik, o'zini katta olishsa, dimog'dorlik, kamtarlik) kabi xislatlarni ifodalaydi. Milliy o'z-o'zini anglash - odamning ijtimoiy, etnik, umumiylikka (birlikka) mansubligida, ijtimoiy sohadagi munosabatlarda o'z millatining egallagan mavqeini yaqqol tasavvur qilganligida, mil- liy manfaatdorligida yorqin ifodasini topadi. Ahloqiy masala insoniyat yer yuzida paydo bo'lgan daqiqadan tortib, to hozirgi davrgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Milliy tuyg'u (g'urur, iftixor) shaxslararo munosabat jarayonida hissiy ta'sirlanishda, yuksak ma'naviy, ichki tug'yonlarda (nafosat, lazzatlanish, rohatlanish, qoniqish) ijodiy g'oyalar tug'ilishda milliy zavq va shavqda, kayfiyat, shijoat, xush ko'rish, yoqtirmaslik kabi ichki kechinmalarda aks etadi. O'zbek millatining qomat tutishi, kiyinishi, ibosi, imo-ishorasi, xarakteri tabassumi, xayoloti, ta'zimi, marosimlari, xalq ijodiyoti (folklor) ta'bi, didi, ochiq qalbli, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari mahsuli sifatida yorqin gavdalanadi. O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqimizning milliy ruhiyatidagi bunday urf-odatlar, an'analar, udumlar, kelajak avlodga obida va meros sifatida qoldirilishi muqaddas burchdir. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz taraqqiyotida, mustaqilligimizning istiqboliga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdid solmasligi uchun oilalar mustakhkamligini ta'minlash zarurdir. Bu masalaning to'g'ri hal etilishining asosiy yo'llardan biri yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalar mustakhkamligini saqlab qolishdir. Buning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida jamiyatimizning xar bir fuqorosi, pedagoglar va ota-onalar ham birdek mas'uldirlar. Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni ta'lim tizimi xodimlari, o'qituvchilar, ota-onalar va yoshlar orasida tarqatish, o'quv-seminarlari, uchrashuvlar tashkil etish asosida zaruriy malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qadimda bir donishmanddan – odamni nima

baxtli qiladi, boylikmi yoki shon shuhratmi?- deb so‘rabdilar. - Na boylik, na shon-shuhrat odamni baxtli qila oladi, tani joni sog‘ gado har qanday kasalmand podshodan baxtliroqdir, - deb javob beribdi donishmand. Darhaqiqat sog‘ligi yomon odam baxtli bo‘la olmaydi, betob odamga hech qanday boylik tatimaydi. Mustahkam sog‘lik insonning asosiy ehtiyojlaridan biri bo‘lib qolmay, balki u jamiyatning muhim ijtimoiy ehtiyoji hamdir. Xalq sog‘ligi – yurt boyligi deb beziz aytilmagan. Bu iborada ijtimoiy, iqtisodiy va insonparvarlik mazmuni yotadi. Kishinig mustahkam sog‘ligini faqat uning kasalliklardan xoli bo‘lgani emas, balki jismoniy va ruhiy kuch-quvvatining uyg‘unligi, yaxshi mehnat qobiliyati kayfiyatning doim yaxshi bo‘lishini ko‘rsatadi. Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklarni oldini olish, aholi keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan, muntazam shug‘ullanishga jalb etish, shuningdek insonni jismoniy kamolotga etkazish, bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Hozirgi davr taqdirini va uning istiqbolini ijobiy hal etish qaysi sohada bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir fuqaroden g‘ayratli, tadbirkor, uddaburon, va ishbilarmon bo‘lishni talab qiladi. Bularning zamirida esa kuch, tezkorlik, chaqqon va chidamli bo‘lish kabi sifatlar yotadi. Albatta, bu sifatlarning maqsadli shakllanishi o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki insonning antogenetik taraqqiyoti jarayonida sport yoki jismoniy tarbiya bilan muntazam hamda rejaga muvofiq shug‘ullanish evaziga amalga oshiriladi. Har bir inson uchun, shuning- dek jamiyat uchun ham salomatlikdan bebahो narsa yuq.

Sog‘lom inson – jamiyatning bebahо boyligi. Chunki inson sog‘lom bo‘lsagini iste’dodi, aqli va g‘ayrati bilan o‘z Vataniga xizmat qila oladi. Shu bois o‘z kelajagini o‘ylagan jamiyat yosh avlodning ma’naviy va jismoniy kamolati haqida qayg‘uradi.

Ammo inson voyaga etib, mustaqil hayotga qadam qo‘ygach, o‘z taqdiri haqida o‘zi bosh qotirishi, ruhiy va jismoniy tarbiyani turmush tarziga aylantirishi zarur.

Tanani pok saqlash sport bilan shug‘ullanib, uni chiniqtirish, vaqtida ishlab, vaqtida dam olish, muntazam ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tib turish, san’at va madaniyat vositalari orqali tafakkurni boyitish, yomon ishlardan tiyilib, yaxshi ishlarga bosh

qo'shish – bularning barchasi o'z-o'zini tarbiyalashga kiradi. O'z-o'zini tarbiyalash yo'li bilan inson sog'lom turmush tarziga va shu tariqa komillika erishadi.

Sog'lom turmush tarzi bu jaholat va xurofotdan holi bo'lgan, ilm, ma'naviyat, sport vositasida o'z-o'zini tarbiyalab boradigan, inson, oila va jamiyatning kamol topishiga xizmat qiladigan hayot shakliga aytildi. Yaxshi bilamizki, jamiyat insonning ta'lim olishi, tibbiy xizmatdan foydalanishi, qiziqqan mashg'uloti bilan shug'ullanishi, tinch va osoyishta yashashi, har tamonlama kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Lekin o'z irodasi, ruhi va e'tiqodini tarbiyalash yaxshi fazilatlarni oshirib, yomon odatlardan xalos bo'lib, sog'lom turmush tarziga erishishda insonning o'ziga ham ko'proq bog'liq.

Bizning avlod – ajdodlarimiz azaldan chavgon, chillak, koptok o'ynash, kurash tushish, uloq chopish, merganlik va boshqa o'yinlarga katta e'tibor berishgan. Sportning har xil turlari bo'yicha sayllar o'tkazilib turilgan. Odamlar kam harakat qilayotgan, harakat tanqisligi sezilayotgan hozirgi zamonda jismoiy tarbiyaga ehtiyoj ayniqsa katta. Zero, yosh avlodni zuvalasi pishiq, etti muchasi sog', baquvvat bo'lib o'sishida jismoniy tarbiya va sport alohida o'rinn tutadi.

O'zbekiston milliy madaniyatining uzviy qismi hisoblangan jismoniy tarbiya keng halq ommasini yuksak ahloqiy ruhda tarbiyalashda va salomatligini mustahkamlashda muhim vositaardan biri hisoblanadi. Buyuk alloma o'z asarlarida jismoniy tarbiyaga benihoya katta ahamiyat beradi. Unig jismoniy tarbiya va sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar borasidagi fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaq topishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tomondan buyuk davlat darajasiga ko'tarilishi, yosh avlod va insonlarning nafaqat aql idroki, bilimi va malakasi, balki ularning salomatligiga, jismoniy barkamolligiga ham bevosita bog'likdir. "Qobusnoma"ning "Bolalar tarbiyasi va tartib intizomi haqida" degan bobida shunday yoziladi: "O'g'ling voyaga etgach, unga ot minish, har xil qurollar bilan qanday

muomala qilishni o'rgat, harbiy ish mashg'ulotlari tugagach, albatta suzishni o'rgatishing shart”.

Shundan ko'rinish turibdiki, qadimdan bolalar jismoniy tarbiyasiga katta ahamiyat qaratilgan. Milliy-ma'naviy merosimizdan unumli foydalanish yoshlarimizni vatanimizga, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqiga hissa qo'shuvchi, jismonan barkamol yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, kuchli va irodali, e'tiqodli va matonatli, milliy g'urur va iftixorga ega bo'lgan yosh o'g'il qizlar qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy mashqlarga mehr qo'yishni bolalarda erta boshlash katta samara beradi. Sog'lom avlod tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishda, zararli odatlarga qarshi tarbiyalashda uyda ota-onalar, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar, shuningdek, har bir kasb egalari ma'suldirlar.

Kelajak avlodni har tamonlama rivojlangan, baquvvat, jasur, kuchli, botir qilib tarbiyalab, Vatan himoyasiga labbay deb javob beruvchi o'g'il-qizlar qilib tarbiyalashimiz lozim. Umid qilamizki, kelajakda millatimiz o'g'il-qizlari aqlan etuk va ma'nан barkamol inson bo'lib etishib yurtimiz shon-shuhratini dunyoga taratadilar.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan hulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, dunyo qarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas.

Ta'lim jarayoni yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo'lmaydi. Yoshlarning intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quvchilar o'rtasida quyidagi tadbirlarni o'tkazish yaxshi natija beradi:

- Chaqqonlar va epchillar sport o'yinlari
- Aql charxi mashqlarini o'tkazish

- Yosh qalamkashlar tugaraklarini jonlantirish
- Mushoira, g‘azalxonlik ko‘rik tanlovlарини o‘tkazish
- Ijodiy ishlarni baholash, rag‘batlantirish
- Ustoz-shogird ishlarini shakllantirish
- Quvnoqlar va zukkolar tanlovlарини o‘tkazish
- «Zakovat», «Iqtidor», «Imkon» kabi intellektual o‘yinlарини o‘tkazish
- «Eng yaxshi tarixchi, matematik, dasturlovchi, fizik, biolog, filolog ... va hokazo» nomlarda tanlovlарини o‘tkazish
- Ilmiy yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etish, ilmiy anjumanlar o‘tkazish.
- «Yosh dasturlovchilar», «Yosh astronomlar», «Yosh ixtirochilar», «Yosh konstruktorlar», «Yosh texniklar», «Yosh radiotexniklar», «Yosh iqtisodchilar» kabi klublарни tuzish
- «Ijodkor va iste’dodli yoshlar», «Eng yaxshi she’r, rasm, foto, kashta, so‘zana va hokazo» nomlarda tanlovlарини o‘tkazish.
- «Quvnoqlar va Zukkolar» klublари jamoalari bellashuvlarini o‘tkazish.
- Ijodkor yoshlarning ijodiy kechalari va ko‘rgazmalarini tashkil etish.
- Umumxalq bayramlari, Xalqaro va Milliy bayram kunlari munosabati bilan tadbirlar majmuuni ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Buyuk mutafakkirlаримизning tavallud kunlariga bag‘ishlangan bayram kechalarini sahnaviy ko‘rinishlarini uysushtirish.
- Mustaqil ravishda biror bir mavzuga bag‘ishlangan badiiy kompozitsiyalar tayyorlash.
- Badiiy havaskorlik to‘garaklarinining ishini jonlantirish va musobaqa tariqasida o‘tkazilishini tashkil etish.